

TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Safarova Shahnoza Tolmasovna

Samarqand viloyat Samarqand tuman

12-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishdagi innovatsion usullar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dars jarayonini tashkil qilish va turli xil dars ishlanmalaridan foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion usul, turli xil dars ishlanmalari, o'quv rejasi, tarbiya, savodxonlik, "Ta'lim to'g'risida qonun",

Boshlang'ich ta'lim — umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zRda Boshlang'ich ta'lim 1—4sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1—4sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6—7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O'zRning 1997-yil 29 avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonunida Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga karatilgan. Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun o'quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlang'ich ta'lim da o'quv rejasi asosida ona tili, matematika, tibbiyot, tarix (tarixiy mavzulardagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ona tili darsida xatsavod o'rgatiladi, nutqni o'stirish, o'qish va yozishga o'rgatish yuzasidan maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi, dastur asosida imlo qoidalari va ba'zi grammatik vositalar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mat. darsida 4 arifmetik amal ichida hisoblash (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish) o'rgatiladi, algebra va geom.ga oid ilk tushunchalar bilan tanishtiriladi. Boshlang'ich ta'lim da maktab dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'rgatish hamda hosil qilishga erishish uchun ta'limning turli usullari, shakllari hamda vositalaridan foydalanish asosida ish

olib borish talab qilinadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrofmuhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. Boshlang'ich

ta'lim pedagogikasi" fanining maqsad va vazifalari. Mazkur fanning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'limni davlat ta'lim standartlari va davlat talablari asosida talab darajasida tashkil etish asoslari bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiya berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani modul asosdagi quyidagi vazifalarni o'rganadi, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatadi va amaliyotga joriy etish vazifalarini bajaradi: 1-modul: boshlang'ich ta'lim pedagogikasining nazariy masalalari;

2-modul: boshlang'ich ta'lim didaktikasi; 3-modul: boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi; 4-modul: boshlang'ich ta'limda innovatsiya; 5-modul: boshlang'ich ta'limda integratsiya.

O'z navbatida bu modullar ichki mavzular, topshiriqlar, mustaqil ta'lim shakllari va laboratoriya ishlariga bo'linadi.

Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

Bolalar ijodini organish metodi Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda

xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo. Umumiy ta'lim poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasiada o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash.

Adabiyotlar

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Boshlang%CA%BBich_ta%CA%BClim
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limdainnovatsion-texnologiyalardan-foydalanish-usullari>
3. <http://kompy.info/amaliy-mashgilot-mavzu-boshlangich-talimpedagogikasining-umum.html>